




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-may holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo


Tarkibiy qism, foizda



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 546,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **497,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **142,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 948,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 100,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,5 %**) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 546,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **107,2 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,4 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **7,6 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 22,7 % ulush bilan 1 485,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,2 % ulush bilan 75,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (**114,0 %**), Termiz sh. (**112,6 %**), Uzun (**112,0 %**) va Angor (**109,6 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	6546,0	107,2	497,4	142,5	6048,6	105,0
Termiz sh.	1366,3	112,6	334,4	178,0	1031,9	100,6
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	242,4	102,5	3,3	44,9	239,1	104,4
Angor	306,4	109,6	15,3	2,7 m	291,1	106,4
Bandixon	75,9	101,8	1,2	90,0	74,7	102,0
Boysun	280,2	100,0	2,0	35,9	278,2	101,3
Muzrabot	258,1	108,2	2,5	77,4	255,6	108,6
Denov	1485,1	106,3	69,0	172,0	1416,1	104,4
Jarqo'rg'on	356,5	108,5	11,3	71,4	345,2	110,4
Qumqo'rg'on	282,6	114,0	3,8	49,0	278,8	116,1
Qiziriq	268,8	109,1	3,3	57,9	265,5	110,3
Sariosiyo	240,8	92,8	3,4	24,9	237,4	96,5
Termiz	129,2	101,2	10,1	54,1	119,1	109,3
Uzun	271,8	112,0	6,9	190,1	264,9	110,8
Sherobod	359,8	103,7	13,0	106,6	346,8	103,6
Sho'rchi	622,1	105,6	17,9	87,7	604,2	106,2


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **42,5 %** ga o'sdi va **497,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 048,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **5,0- %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,3 %**), Muzrabot (**99,0 %**), Qiziriq (**98,8%**) va Qumqo'rg'on (**98,7 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**24,5 %**), Termiz (**7,8 %**), Angor (**5,0 %**) va Denov (**4,6 %**) tumanlarda kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-may oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 380,0** ming so'mni (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,7 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	2 380,0	104,7
Termiz sh	7 175,9	108,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 314,0	100,3
Angor	2 225,2	107,4
Bandixon	960,7	99,0
Boysun	2 337,0	98,1
Muzrabot	1 749,6	106,0
Denov	3 705,3	104,3
Jarqo'rg'on	1 567,2	106,1
Qumqo'rg'on	1 156,9	111,6
Qiziriq	2 253,5	106,6
Sariosiyo	1 103,8	90,8
Termiz	1 604,3	99,1
Uzun	1 510,9	108,5
Sherobod	1 776,7	101,3
Sho'rchi	2 848,4	103,1

Eng yuqori hajmga ega hududlar

1 **Termiz sh,**
7 175,9

2 **Denov,**
3 705,3

3 **Sho'rchi,**
2 848,4

Eng past hajmga ega hududlar

1 **Bandixon,** 960,7



2 **Sariosiyo,** 1 103,8

3 **Qumqo'rg'on,**
1 156,9

* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**7 175,9** ming so'm), Denov (**3 705,3** ming so'm), va Sho'rchi (**2 848,4** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 100,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,5 %** ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **433,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **52,7 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **667,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **-3,9 %**) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1 100,2	112,5	433,2	152,7	667,0	96,1
Termiz sh.	42,6	116,4	42,6	116,3		
tumanlar:						
Oltinsoy	94,8	103,8	21,3	132,2	73,5	97,8
Angor	55,2	111,4	36,5	149,0	18,7	74,6
Bandixon	53,3	102,7	4,1	135,7	49,2	100,9
Boysun	72,2	90,8	31,9	155,0	40,3	68,4
Muzrabot	125,3	116,9	37,6	179,7	87,7	101,7
Denov	105,5	99,4	57,9	174,3	47,6	65,3
Jarqo'rg'on	73,4	148,8	31,0	184,7	42,4	130,2
Qumqo'rg'on	101,3	143,3	37,1	172,7	64,2	130,4
Qiziriq	77,5	131,6	22,4	194,4	55,1	116,4
Sariosiyo	76,5	79,1	24,7	136,3	51,8	66,0
Termiz	32,4	99,3	4,4	231,4	28,0	91,0
Uzun	71,0	171,2	32,7	149,1	38,3	195,6
Sherobod	31,7	106,3	22,3	106,6	9,4	105,0
Sho'rchi	87,5	115,1	26,6	166,3	60,9	101,4

2022- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **433,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **667,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **433,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**202,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **667,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **486,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **167,0** mlrd. so'mni, otlar **10,3** mlrd. so'mni, parrandalar **3,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **129,8** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,2 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **97,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	129,8	102,2	3,9	32,3	125,9	109,7
Termiz sh. tumanlar:	44,8	108,6			44,8	108,9
Oltinsoy	3,6	108,4			3,6	108,4
Angor	4,1	113,5			4,1	113,5
Bandixon	0,7	119,7			0,7	119,7
Boysun	2,7	116,9			2,7	116,9
Muzrabot	2,9	108,2			2,9	108,2
Denov	20,8	111,0			20,8	111,0
Jarqo'rg'on	8,1	107,9			8,1	107,9
Qumqo'rg'on	3,3	109,0			3,3	109,0
Qiziriq	2,7	112,1			2,7	112,1
Sariosiyo	4,9	30,2			4,9	98,8
Termiz	12,3	109,1	0,5	63,5	11,8	112,4
Uzun	6,5	251,2	3,4		3,1	117,3
Sherobod	8,0	109,3			8,0	109,3
Sho'rchi	4,4	109,6			4,4	109,6


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 449,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **16,9 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **289,1** mlrd. so'mni (**30,6 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizd	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizd
Surxondaryo viloyati	1449,9	116,9	289,1	130,6	1160,8	113,9
Termiz sh.	455,1	103,7	63,8	79,1	391,3	109,2
tumanlar:						
Oltinsoy	23,7	92,5	8,8	69,7	14,9	114,5
Angor	33,4	110,6	0,1	49,5	33,3	111,0
Bandixon	7,9	106,3		8,8	7,9	108,9
Boysun	20,6	115,7	0,7	100,2	19,9	116,4
Muzrabot	18,9	87,6	10,7	75,3	8,2	111,7
Denov	490,3	119,9	85,1	117,6	405,2	120,4
Jarqo'rg'on	86,5	93,7	2,0	12,1	84,5	112,0
Qumqo'rg'on	79,8	259,2	62,7	4,1 m	17,1	109,0
Qiziriq	10,0	102,8		0,8	10,0	109,2
Sariosiyo	42,7	111,2	1,8	185,4	40,9	109,3
Termiz	81,9	118,7	10,4	177,5	71,5	113,2
Uzun	16,0	110,8	0,1	17,6	15,9	112,9
Sherobod	13,3	112,4	0,1	25,0	13,2	114,0
Sho'rchi	69,8	295,2	42,8	117,9 m	27,0	115,9

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Sho'rchi (**11788,0 %**), Qumqo'rg'on (**414,7 %**), Sariosiyo (**185,4 %**) va Termiz (**177,5 %**) tumanlarida kuzatildi.